

724
498

Bo'riboy Ahmedov



AMIR TEMURNI YOD ETIB

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

10.04.22

--	--

2002

8.24
1998

BO'RIBOY AHMEDOV

AMIR TEMURNI YOD ETIB

-1753-

Yod etib



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«FAN» nashriyoti davlati
Toshkent—2018

OLIV VA O'RTA MAXRUS TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.512.133-4:355.091(575.1) Amir Temur (08)
KBK 67.3+63.3(5U)
A98

MUNDARIJA

Ikki og'iz eslatma..... 5

Birinchi qism

Ilmiy-ommabop maqolalar

Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati (<i>Dastlabki mulohazalar</i>)	7
Tarixiy manbalar tilga kirganda	26
«Temur tuzuklari» — tarixiy manba sifatida	33
Kubur — ijtimoiy zarurat (<i>Aloqa tarixidan</i>)	46
O'zbek qavmlari	50
Qadimiy qonunlarimiz	56

Ikkinchi qism

Publitsistik maqolalar

Abdulyatga daxldor inson	63
Amir Temurni yaxshi o'rganaylik	77
Ikkundarning o'chini Spitamendan olasizmi?	79
Islom — adolatli va pok ta'limot	88
Tarixni soxtalashtirib bo'lmaydi	91
Long qorong'isida	98
Ilm-fan xalq va mamlakatga xizmat qilsin	106
Hammaniz uchun dasturlamal	110
Ilq-huquqimizni tan olsinlar	114

Uchinchi qism

Subbatlar

Amirning qilichi gayerda?	117
Itz kim — mulki Turon	119
Mangu ustivor haqiqat	125
Milliy tarbiya sarchashmalari	131
Nomi abadiy o'chmas shaxs	136
Sibirga kemagan o'zbek	142
Tarix va kelajak	153
Nurli sahifalar	165

UO'K: 821.512.133-4:355.091(575.1) Amir Temur (08)
KBK 63.3(2U)

ISBN 978-9943-19-430-4 © O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti, 2018

QO'NG'IR TA'YINLASH VA QO'NG'IR
QILISHNI AMBULAGIY TA'YINLASH
ISLAMIY QO'NG'IR TA'YINLASH

Tarix — haqiqat onasi	170
Temurning ulkan xizmatlari	176
Temurshunoslikni qaysi yoʻnalishda rivojlantirish kerak?	179
Teran tomirlar	184
Oʻtmish oʻzagimizdir	186
Oʻtmishi yoʻqning kelajagi yoʻq	191
Hamma narsaga egamiz, ammo	201

Toʻrtinchi qism

Amir Temurga maktublar

Amir Temurga maktublar	206
Birinchi maktub	207
Ikkinchi maktub	211
Uchinchi maktub	218
Toʻrtinchi maktub	225
Beshinchi maktub	235
Oltinchi maktub	241
Yetinchi maktub	246
Sakkizinchi maktub	254
Toʻqqizinchi maktub	256
Jahon mehrobida paydo Alisher	262

Beshinchi qism

Yangi tadqiqot

Temur va Qamariddin	273
<i>Birinchi bob.</i> Chigʻatoy ulusi (XIII—XIV asrning 30-yillari)	289
<i>Ikkinchi bob.</i> Chigʻatoy ulusi oʻzaro feodal kurash iskandariyasi (XIV asrning 40—50-yillari)	313
<i>Uchinchi bob.</i> XIV asrning ikkinchi yarmida Moʻgʻuliston davlati. Tugʻluq Temurxonning istilochilik yurishlari	329
<i>Toʻrtinchi bob.</i> Temur va Qamariddin	347
<i>Beshinchi bob.</i> Moʻgʻuliston XV asrda. Chigʻatoylar bilan temuriylar munosabati	359
Xulosa	388

Qatagʻon qurboni boʻlgan olim Ahmadxon
Tojixoʻjayevning porloq xotirasiga bagʻishlayman
Muallif

IKKI OGʻIZ ESLATMA

Mazkur toʻplamga 1988—1994-yillar mobaynida vaqti matbuot sahifalarida eʼlon qilingan ilmiy-ommalabop, publisistik maqolalar kiritildi. Toʻplamda, shuningdek, subbatlar, Amir Temurga maktublar, «Temur va Qamariddin» nomli yangi tadqiqotga oʻrin berildi.

Maʼlumki, olimlarning kitoblari keng xalq ommasiga hamma vaqt ham yetib bormaydi, chunki ular juda kam nusxada, ming, koʻp boʻlganda ikki-uch ming nusxada chop etiladi. Bu birinchidan. Ikkinchidan esa kitoblari ilmiy boʻlgani sababli juda kam odam oʻqiydi. Shu bois aytim olimlar, shular qatori biz ham, keyingi yillarda koʻproq ilmiy-ommalabop asarlar yozadigan, maqolalarimizni sodda va ishlamlashtirib, vaqti matbuot — gazeta va jurnallarning sahifalarida eʼlon qiladigan boʻlib qoldik. Bilgan odamga bu juda qulay boʻl ekan. Chunki shunday qilinganda, kashfiyoting tezroq yerga yetib boradi va u tez fursatda ommalashar ekan. Dartaqiqat, ommalashgan, xalq va mamlakatga foydasi tegmaydigan ilmning kimga keragi bor, oʻzi? Xullas, ushbularni hisobga olib, koʻpdan beri, imkon qadar maqolalarimizni vaqti matbuot sahifalarida eʼlon qilib kelganimiz. Qarangki, ular shu paytgacha yigʻilib, anchagina boʻlib qolgan ekan, biz oʻgʻlim Muzaffar ikkiniz (u ham boʻljak sharq-shunos) ulardan muhim-muhimlarini, toʻgʻrisi, ikkinizga muhim koʻringanlarini tanlab oldik.

Turtli ifoda uslubiyatlarida yozilgan yozishmalarda biz butun ilmiy faoliyatimiz davomida mashgʻul boʻlib kelayotgan toʻrt mavzu: oʻzbek xalqining kelib chiqishi; Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy tarixi va madaniyati; arab, fors va turkiy tillarda bitilgan tarixga oid qoʻlyozma asarlarni oʻrganish; Amir Temur va uning avlodlari hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Temuriylar davri tarixi va madaniyatini oʻrganish muammolari bilan bogʻliq masalalar

Yuzasidan bildirgan tahliliy qarashlarimiz, mulohazalarimiz, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, o'zligimizni anglash, xalqimiz ayniqsa, yosh avlod ongida milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini uyg'otish, milliy istiqbol mafkurasini shakllantirish xususidagi fikrlarimiz o'z aksini topgan.

To'plamda, ayniqsa, adiblar va jurnalistlar bilan bo'lgan suhbatlarga alohida e'tibor berilgan. Bundan tashqari, javobsiz qolgan savollar, ya'ni oliy o'quv yurtlarining talabalari bilan bo'lgan uchrashuvlarda tushgan, lekin vaqt taqozosi bilan javob berish imkoniyati bo'lmagan savollar va ularga keyinchalik vaqti matbuot sahifalari orqali berilgan javoblar ham majmuaimizda bor.

Suhbatlarimiz tarix va taqdir haqida. Bu borada shu kunlarda respublikamizda olib borilayotgan xayrli ishlar, shuning bilan birga, bu masalada yo'l qo'yilayotgan aytim xato va kamchiliklar borasida ham so'z boradi. Alishet Navoiy ijodini o'rganish va targ'ib etish davr talabiga aylangan kezlari, nayoishunoslar birdan ko'payib ketganday, hozir Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Sulton Husayn Boyqaro haqida u yer-bu yerdan ko'chirib yozayotganlar urug'lab ketdi. Haqiqiy asl asarlar turib, tarixiy manbalar va ilmiylikdan yiroq xalq og'zaki ijodi namunalariga yaqin Salohiddin Qorining «Temurnoma»si, Nabijon Mahmudning «Amir Temurning tarjimai holi»ga o'xshagan naql-u rivoyatlarga asoslanib yozilgan asarlar ham nashr qilinmoqda.

Ba'zi olimlar esa Amir Temur shaxsi, hayoti, avlodlari xususida aqlga sig'maydigan mubolag'alar o'ylab topishyaptiki, ularning da'volari asossiz ekanligini, mubolag'alari tarixiy-ilmiy yo'singga mutlaqo zid kelishini isbotlash zaruriyati tug'ildi.

Xullas, mazkur to'plamga kirgan maqola va suhbatlar tariximiz va madaniyatimizni chuqurroq haqqoniy o'rganishga bir turtak bo'larmikin degan umiddamiz. Chunki o'tmish va ko'lma tarixini yaxshi bilmay turib bugunimizni ham, kelajagimizni ham teran anglolmaymiz.

Birinchi qism

ILMIY-OMMABOP MAQOLALAR

AMIR TEMURNING DAVLATINI

IDORA QILISH SIYOSATI

(Dastlabki mulohazalar)

I

Amir Temur, o'z davri va zamonasiga ko'ra markazlashgan yirik davlatga asos soldi va bu bilan xalqiga, yurtiga begiyos xizmat qildi. Buni anglab yetish uchun Amir Temur katta siyosat maydoniga kirib kelmasdan burun mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy ahvolni ko'z oldimizga keltirsak, shuning o'zi kifoya. Xo'sh, o'sha vaqtda yurtdagi ahvol qanday edi? Chig'atoyxon avlodidan bo'lgan Temoshirinxon (1326—1334) o'ldirilgandan keyin ulusda begarorlik kuchaydi. Buni shundan ham bilisa bo'ladi, yigirma besh yil o'layotgan mamlakat taxtida o'ndan ortiq xon saltanat qurib o'tirib, lekin birontasi ham tobora kuchayib borayotgan feodal tarqoqchilikka barham berishga qodir bo'lmadi. Begarorlik oqibatida tarixda Chig'atoy ulusi nomi bilan mashhur bo'lgan ulkan bir mamlakat o'ziga yaqin mustaqil bekliliklarga bo'linib ketdi. Masalan, Kesh viloyatida Hoji barlos o'zini hokim deb e'lon qildi, Xo'jand va unga qaramanli yerlarda amir Boyazid jaloir mustaqillik da'vo qilib chiqib, Balx va unga tobe bo'lgan yerlarda O'ljoy Bug'o sultons, Shibirxon viloyatida nayman umociqiga mansub bo'lgan Muhammadxon jin Aperi, Xuttalon bilan Arhang saroyida amir Kayxustrav bilan Uljaytu Aperi, Samarqandga qarashli Tokand bilan Saripulda Xizr Yuvovuriy mustaqillik bayrog'ini ko'tarib chiqdilar. Hirof hukumatini esa marhum amir ul-umaro Qazag'onning uddaburo nabirasi amir Husayn egallab oldi. Qo'yinchi, bu parchalanish ulusni o'zaro urush-talash girdobiga ulog'irdi. Johil, urushqoq beklar, amirlar